



## MOLIYAVIY INSTRUMENTLARNING IQTISODIY MAZMUNI VA BUXGALTERIYA HISOBIDAGI O‘RNI

*Nabijonov Qudratbek Murodjon o‘g‘li*

*Andijon davlat texnika instituti*

*“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi,*

*Ilmiy rahbar: Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna*

*Andijon davlat texnika instituti katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moliyaviy instrumentlarning iqtisodiy mazmuni, ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi ahamiyati hamda buxgalteriya hisobida aks ettirishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy aktiv va majburiyatlarning tasnifi, ularni baholash usullari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tan olish va hisobga olish tartiblari tahlil qilingan. Maqolada moliyaviy instrumentlarning korxonada moliyaviy holatini baholash, investitsion faoliyatni rivojlantirish va risklarni boshqarishdagi o‘rni keng ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy instrumentlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy aktivlar, moliyaviy majburiyatlar, investitsiyalar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.

**Kirish.** Moliyaviy instrumentlar zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, kapital harakatini ta‘minlash va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy bozorlarning kengayib borishi, investitsion faoliyat hajmining oshishi hamda xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlari moliyaviy instrumentlardan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirmoqda. Shu sababli moliyaviy instrumentlarning



iqtisodiy mazmunini chuqur anglash hamda ularni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Moliyaviy instrument deganda bir subyekt uchun moliyaviy aktiv va boshqa subyekt uchun moliyaviy majburiyat yoki kapital instrumentini yuzaga keltiruvchi shartnoma tushuniladi [1]. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (IFRS 9) talqiniga ko‘ra, moliyaviy instrumentlar tarkibiga pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari, investitsiyalar, aksiyalar, obligatsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy vositalar kiradi. Ushbu instrumentlar orqali korxonalar moliyaviy resurslarni jalb qiladi, investitsiya faoliyatini amalga oshiradi va moliyaviy risklarni boshqaradi.

Moliyaviy instrumentlarning iqtisodiy mazmuni, avvalo, ularning kapitalni qayta taqsimlash funksiyasida namoyon bo‘ladi. Masalan, vaqtincha bo‘sh mablag‘larga ega bo‘lgan investorlar o‘z mablag‘larini aksiyalar yoki obligatsiyalar xarid qilish orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltiradi. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi. Shu jihatdan moliyaviy instrumentlar iqtisodiyotdagi investitsion faollikni ta‘minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy instrumentlarning o‘rni juda katta. Korxonalar o‘z faoliyatini kengaytirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish yoki yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘larga ehtiyoj sezadi. Bunday holatda ular bank kreditlari, obligatsiyalar chiqarish yoki aksiyalar emissiyasi orqali moliyaviy resurslarni jalb qiladi. Masalan, yirik sanoat korxonalari investitsion loyihalarni amalga oshirishda uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarish orqali katta miqdordagi mablag‘larni safarbar etadi. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish va bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy instrumentlar korxonalar uchun risklarni boshqarish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega [2]. Xususan, valyuta kurslari, foiz stavkalari yoki tovar narxlarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy xavflarni kamaytirish



maqsadida derivativ instrumentlardan foydalaniladi. Fyuchers, opsiya va svop kabi vositalar korxonalariga bozor tavakkalchiligini nazorat qilish imkonini beradi. Ayniqsa, xalqaro savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun bunday instrumentlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Moliyaviy instrumentlarning buxgalteriya hisobidagi o'рни ham alohida e'tiborga loyiqdir. Buxgalteriya hisobi korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini haqqoniy aks ettirishni ta'minlaydi. Shu sababli moliyaviy instrumentlarni to'g'ri tasniflash, baholash va hisobotlarda aks ettirish muhim hisoblanadi. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy instrumentlar dastlabki tan olish vaqtida ularning haqiqiy qiymatida baholanadi. Keyinchalik esa ular amortizatsiyalangan qiymat yoki adolatli qiymat asosida qayta baholanadi.

Moliyaviy aktivlarni hisobga olishda ularning iqtisodiy mazmuniga qarab tasniflash muhim ahamiyatga ega. Masalan, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlik qarzlari va pul mablag'lari moliyaviy aktivlar sifatida hisobga olinadi. Obligatsiyalar yoki uzoq muddatli investitsiyalar esa alohida tartibda baholanadi. Agar korxonalar boshqa tashkilot aksiyalarini sotib olsa, bu investitsiya moliyaviy aktiv sifatida tan olinadi va uning qiymati bozordagi narxlarning o'zgarishiga qarab qayta hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish ham buxgalteriya tizimining muhim qismi hisoblanadi [3]. Kreditlar, qarz majburiyatlari va chiqarilgan obligatsiyalar korxonaning moliyaviy majburiyatlari sifatida tan olinadi. Ushbu majburiyatlar bo'yicha foiz xarajatlari muntazam ravishda hisoblanib, moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy instrumentlarning noto'g'ri hisobga olinishi korxonaning moliyaviy hisobotlarida xatolarga olib kelishi mumkin. Bu esa investorlar va kreditorlarning noto'g'ri qaror qabul qilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistonda ham moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korxonalarda xalqaro moliyaviy



hisobot standartlariga o'tish jarayoni jadallashdi. Bu esa moliyaviy instrumentlarni hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, kapital bozori rivojlanishi bilan aksiyalar va obligatsiyalar muomalasi hajmi ortib borayotgani moliyaviy instrumentlar hisobining sifatini oshirishni talab etadi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, moliyaviy instrumentlarni baholashda malakali mutaxassislarning yetishmasligi, xalqaro standartlarni qo'llashdagi qiyinchiliklar hamda moliyaviy bozor infratuzilmasining to'liq shakllanmaganligi ayrim to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, korxonalarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi ham moliyaviy instrumentlar hisobining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy instrumentlar korxonada faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsion imkoniyatlarni kengaytirish hamda turli iqtisodiy xavflarni boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi [4]. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyati tobora murakkablashib borayotganligi sababli moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish ularning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, korxonada moliyaviy holatini baholash, investitsion faoliyatni rivojlantirish va risklarni kamaytirishda moliyaviy instrumentlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, moliyaviy instrumentlar korxonaning moliyaviy holatini baholashda muhim axborot manbasi hisoblanadi. Korxonada balansida aks ettirilgan moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar uning moliyaviy barqarorligi, likvidliligi hamda to'lov qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Masalan, korxonaning pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalari, debitorlik qarzlari va boshqa moliyaviy aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatini ifodalaydi. Agar korxonada balansida likvid moliyaviy aktivlar ulushi yuqori bo'lsa, bu korxonaning moliyaviy jihatdan barqaror ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy instrumentlar orqali korxonaning



kapital tuzilmasi ham baholanadi. Aksiyalar, obligatsiyalar va kredit majburiyatlari korxonada faoliyatining qanchalik darajada tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, qarz mablag'lari ulushining haddan tashqari oshib ketishi moliyaviy xavfning ortishiga olib keladi. Shu sababli investorlar va kreditorlar korxonada moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishda moliyaviy instrumentlar tarkibiga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblashda moliyaviy instrumentlar muhim ahamiyatga ega. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik darajasi va rentabellik ko'rsatkichlari aynan moliyaviy aktiv va majburiyatlar asosida aniqlanadi.

Moliyaviy instrumentlar investitsion faoliyatni rivojlantirishda ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Korxonalar o'z ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha kapitalga ehtiyoj sezadi. Bunday sharoitda moliyaviy instrumentlar investitsiya resurslarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, aksiyalar chiqarish orqali korxonada investorlarni jalb qiladi va o'z ustav kapitalini oshiradi. Bu esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Obligatsiyalar esa korxonalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilishning muhim manbasi hisoblanadi [5]. Obligatsiyalar chiqarish orqali korxonada bank kreditlariga nisbatan qulayroq shartlarda mablag' jalb qilishi mumkin. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari va infratuzilma loyihalarida obligatsiyalarning o'rni katta hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish korxonaning bozor qiymatini oshirishga ham xizmat qiladi. Investorlar moliyaviy jihatdan barqaror va istiqbolli korxonalarining aksiyalariga ko'proq qiziqish bildiradi. Natijada korxonaning kapitallashuv darajasi ortadi.

Moliyaviy instrumentlar investitsion portfelni diversifikatsiya qilish imkonini ham yaratadi. Korxonalar bo'sh mablag'larini turli moliyaviy aktivlarga joylashtirish orqali qo'shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, qisqa muddatli



obligatsiyalar, depozit sertifikatlari yoki aksiyalarga investitsiya qilish korxonaning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy instrumentlarning yana bir muhim jihati risklarni boshqarishdagi ahamiyatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar turli moliyaviy xavflarga duch keladi. Jumladan, valyuta kurslarining o'zgarishi, foiz stavkalarining oshishi, inflyatsiya darajasi yoki tovar narxlaridagi tebranishlar korxonalar moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday risklarni kamaytirishda derivativ moliyaviy instrumentlar muhim vosita hisoblanadi.

Fyuchers, opsiya, forvard va svop shartnomalari korxonalar kelajakdagi moliyaviy xavflarni oldindan boshqarish imkonini beradi. Masalan, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar valyuta kursining pasayishi xavfidan himoyalangan uchun valyuta fyucherslaridan foydalanishi mumkin. Bu orqali korxonalar kelajakdagi valyuta kursini oldindan belgilab qo'yadi va ehtimoliy zararlarning oldini oladi. Xuddi shuningdek, foiz stavkalari bilan bog'liq xavflarni kamaytirishda foiz svoplari qo'llaniladi [6].

Risklarni boshqarishda moliyaviy instrumentlardan foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki bozor sharoitidagi keskin o'zgarishlar korxonalar daromadlarining kamayishiga yoki zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin. Moliyaviy instrumentlar esa ushbu xavflarni minimallashtirish orqali korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ayniqsa, xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun risklarni boshqarish tizimi strategik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, moliyaviy instrumentlar korxonalar boshqaruvining shaffofligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy aktivlar va majburiyatlarning aniq aks ettirilishi investorlar, aksiyadorlar va kreditorlarga korxonaning haqiqiy moliyaviy holati haqida to'liq ma'lumot beradi. Bu esa investitsion muhitni yaxshilashga va iqtisodiy ishonchni oshirishga xizmat qiladi.



**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, moliyaviy instrumentlar zamonaviy iqtisodiyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish, investitsion jarayonlarni rivojlantirish va iqtisodiy xavflarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular korxonalarining moliyaviy holatini obyektiv baholash, kapital harakatini ta‘minlash hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy instrumentlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi va investorlar hamda kreditorlar uchun muhim axborot manbaini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.
2. Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand. SamISI, 2013.-228-bet.
3. Qo‘ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I. Ichki audit. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2015. – 220 b.
4. Zebiniso X., Shavkatbek E. ACCOUNTING AND ECONOMIC ANALYSIS: AN INTEGRATED APPROACH TO CALCULATING FINANCIAL INDICATORS //Modern education and development. – 2025. – T. 19. – №. 4. – C. 8-13.
5. Azizbek M., Shavkatbek E. XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARINING MOLIYA INSTITUTLARI VA KORXONALAR FAOLIYATIGA TA‘SIRI //Modern education and development. – 2025. – T. 39. – №. 2. – C. 75-82.
6. Talibjanovich Q. B., Shavkatbek E. AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI SIFATINI TA‘MINLASHDA XALQARO STANDARTLARNING O‘RNI //Modern education and development. – 2026. – T. 41. – №. 3. – C. 18-27.